



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 69-211-72-00




www.namstat.uz

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



2022- yil yanvar-dekabr oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 18 241,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,4 % ni tashkil etdi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,0 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2022-yil yanvar-dekabr oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 138,9 % ga o'sishi hisoblanadi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 107,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat


2022- yil yanvar-dekabr oylarida



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 955,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,0 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,6 % (6,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,9 % (13,2 %) va quyi texnologiyalisi – 77,3 % (79,1 %) ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,7 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,7 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,4 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,9 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 162,4 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,3 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 188,5 %) ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2022- yil yanvar-dekabr oylarida




2022-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 110,9 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 12,9 % ga kamaygan), 36,0 ming tonna paxta tolasi (17,2 % kamaygan), 11,3 ming. tonna yog' mahsulotlari (17,6 % ga kamaygan) hamda 59,2 ming tonna paxta chigiti (13,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	61,9	54,8	-7,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	125,2	110,9	-14,3
Paxta tolasi, ming tonna	42,2	36,0	- 6,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	13,3	11,3	- 2,0

Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 1,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 157,3 % bo'lgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % ga pasayib, fizik hajm indeksi esa, 72,2 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 154,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 898,3 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 6,1 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 690,2 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 462,6 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 045,1 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 582,5 mlrd so'mga ortgan.



Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 571,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 544,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 27,0 mlrd. so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,0 %ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 124,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 107,3 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 099,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish


2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,7 % ni, ya'ni jami 1 427,5 mlrd so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 9,5 % ni tashkil etib, 1 724,3 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 296,8 mlrd. so'mga oshgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 226,8 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 624,1 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 11,8 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 mlrd. so'mga ko'payib, 14,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, yani 217,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 122,4 mlrd. so'mga ko'paygan va 340,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 003,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,5 % ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 841,2 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6 974,6	6 576,6	-398,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	73,4	70,3	- 3,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 174,8 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	74,1	87,7	13,6
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	20,9	20,1	-0,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 13,6 mlrd. so'm yoki 18,3 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,8 mlrd. so'mga kamaygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 577,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 117,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 58,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



106,8 %

2022- yil
yanvar-dekabr



115,4 %

2021- yil
yanvar-dekabr



Nooziq-ovqat mahsulotlar



123,4 %

2022- yil
yanvar-dekabr



120,0 %


2021- yil
yanvar-dekabr





Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 42,9 % ni, shuningdek, Chust tumani 10,3 % ni, To'raqo'rg'on tumani 8,6 % ni, Namangan tumani 7,7 % ni, Kosonsoy tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 4 518,5 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 42,9 %, Chust tumanida 1 093,2 mlrd. so'm bo'lib, 10,3% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 910,0 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 8,6 %ni tashkil etdi.



yanvar-dekabr
mlrd.so'm





Jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmida iste'mol mahsulot-
larining ulushi





Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 41,7% shuningdek, Chust tumani 13,4 %, To'raqo'rg'on tumani 11,3% ni tashkil etadi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

2022- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 594,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 19,7 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2022- yil yanvar-dekabr)



Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 44,9 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 9,6% ni, Namangan tumani esa 9,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd.so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-dekabr
o'sish sur'ati




o'sish sur'ati
mlrd. so'm



Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 38,9 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 17,8 %ni, Chust tumani 8,4 %ni, Namangan tumani 5,8 % tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-dekabr o'sish sur'ati




o'sish sur'ati mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (13 731,5 ming so'm), Namangan shahrida (10 630,7 ming so'm), tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati




yanvar-dekabr o'sish sur'ati




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 8 331,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,7 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-dekabr ulushi % da.




Namangan sh.	52,5	3740,1
Mingbuloq	49,2	373,2
Kosonsoy	38,1	365,0
Namangan	68,6	729,7
Norin	50,2	123,2
Pop	61,8	323,5
To'raqo'rg'on	10,8	352,1
Uychi	74,5	779,1
Uchqo'rg'on	23,3	251,2
Chortoq	100,0	375,4
Chust	40,6	618,3
Yangiqo'rg'on	100,0	301,1

jamidagi ulushi **mlrd. so'm**
 

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 568,3 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 6 747,8 ming so'mni, Namangan tumanida 4 401,7 ming so'mni, Chust tumanida 3 944,9 so'mni tashkil etdi.



o'sish sur'ati ming. so'm

Namangan viloyati

2 835,1 ming.so'm 2021-yil

3 568,3 ming.so'm 2022-yil



yanvar-dekabr o'sish sur'ati

115,7 % 2021-yil

115,3 % 2022-yil

Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 888 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3 005 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 598 tasi (7,6 %) Kosonsoy tumaniga, 587 tasi (7,4 %) Uychi tumaniga, 571 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 553 tasi (7,0 %) Namangan tumaniga, 499 tasi (6,4 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



2021- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr




Jami faoliyat yuritayotgan



2021- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr



yangi tashkil etilgan faoliyat yuritayotgan



2022- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 131 ta loyiha bo'yicha 1 514,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 19,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 1 246 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 11,9 % ga ko'payganligi kuzatildi.